

chiphead, gearhead. Web so'zi webcam – veb-kamera; *Webmaster* – veb-sayt ma'muriyati uchun mas'ul bo'lgan shaxs; *Web guru* – veb-texnologiyani yaxshi biladigan shaxs; *Webhead* – Internetda tez-tez kontent joylashtirgan shaxs; *Websmith* – veb-dizayner; web-farm – boshqa saytlarga giperhavolalarni o'z ichiga olgan veb-sayt; *Web trap* – tarmoqqa kirishga urinayotgan tajovuzkorlarni ushlash uchun foydalaniladigan sayt; *Web rot* – saytning “degradatsiyasi”, mavjud bo'lmagan sahifalarga havolalar mavjud bo'lgan sayt;

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, internet leksikasining tuzilishi va tarkibi asos vazifasidagi tilning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, murakkab birikma shaklidagi terminlar yoki abbreviaturalar ingliz tilining ichki xususiyatlari va so'zlashuvchilarning psixologik-madaniy dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://scienceweb.uz/publication/19614>
2. <https://archive.org/details/httpscajlpcentralasianstudies.orgindex.phpcajlparticleview1088>
3. <https://slib.uz/uz/maqola/view?id=20948>
4. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н. Ярцева. - 2-е изд., дополненное - М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. - 709 с.
5. Обукова Оксана Вячеславовна. Социокультурные фактори формирования лексики интернета (на материале английского языка). Москва – 2007.
6. Watts, K. 21st Century Dictionary of Slang. - N.Y.: Dell Publishing, 1994.
7. Елисеева В.В. Лексикология английского языка. - СПб.: СПбГУ, 2003. - 44 с.

MADANIYATLARARO MULOQOT DISKURSI

Sarvinozxon ABDUXALIMOVA

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz madaniyatlararo muloqotda diskurs tahliliga lingvomadaniy jihatdan yondashish shakllari, ularning til birliklaridagi shakllari, qo'llaniluvchi metodlari va ma'no mazmunini ochib berdik. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda bu sohaning rivojiga hissa qo'shgan olimlar fikrini ham tahlil qildik. Hozirgi

zamonda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelayotgan lingvomadaniyatshunoslik fanining asoslari til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqlik muammosini o‘rgandik, shu bilan birga zamonaviy lingvistikaning eng asosiy bo‘limlaridan lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika uyg‘unligi haqida fikr yuritiladi. Tilshunos olimlarning fikrlari tahlil qilinadi. Ularga umumiy xulosalar berdik.

***Kalit so‘zlar:** til, madaniyat, tillarni o‘qitish va o‘rganish, madaniyatlararo muloqot, etnologiya va madaniy antropologiya, individual tizim, ijtimoiy-madaniy tizim, yashash vositalari tizimi.*

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositalardan biridir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etib turadi. Til o‘zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o‘rinda tilsiz mukammal namoyon bo‘la olmaydi. Har bir millat o‘zida ma‘lum bir milliy an‘analarni aks ettiradi. Ya‘ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an‘analari, urf-odatlar mavjuddir. Bu ma‘noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix hamda adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma‘lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liq hodisadir.

Madaniyatlararo tadqiqot antropologiya va unga aloqador fanlar sohasidagi ilmiy usul bo‘lib, ijtimoiy xulq-atvorni o‘rganish va madaniy farqlar haqidagi farazlar uchun tadqiqotlarida to‘plangan turli jamiyatlar haqidagi ma‘lumotlardan foydalanadi. Bir nechta jamiyatlarning o‘xshash xususiyatlarini ko‘rib chiqadigan qiyosiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, madaniyatlararo tadqiqotlar kattaroq namunadan foydalanadi, bu esa o‘rganilayotgan parametrlar o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligini yoki uning yo‘qligini statistik tahlil qilish imkonini beradi. Madaniyatlararo tadqiqda quyidagi tizimlarni o‘rganish uchun muhim:

- 1) ekologik, shu jumladan jismoniy muhit, resurslar, geografiya;
- 2) yashash vositalari tizimi, ya‘ni atrof-muhitdan foydalanish usullari: dehqonchilik, terimchilik, sanoat;
- 3) ijtimoiy-madaniy tizim: shaxsdan “tashqarida” mavjud bo‘lgan institutlar, normalar, rollar va qadriyatlar;

4) individual tizim: idrok etish, o'rganish, motivatsiya, sub'ektiv madaniyat, o'z navbatida, madaniy tizim elementlarini idrok etish xususiyatlarini o'z ichiga oladi;

5) interdividual tizim: ijtimoiy xulq-atvor namunalari va shu kabi boshqa hodisalarda. Shu bilan birga, bunday tizimlarning tasnifi va nomenklaturasi farq qiladi.

O'tgan asrning 30-40 yillaridagi mashhur Sepir-Uorf gipotezasi –lingvistik nisbiylikga ko'ra, turli tilda gaplashuvchi kishilar guruhi olamni turlicha idrok qilgan, hamda til tuzilishi voqelikni bilish usuli va tafakkurni belgilagan, voqelik muayyan jamoa til me'yorlarida nufuzli darajada g'ayrushuriy shakllanadi, ya'ni til –olamni etnosga xos idrok etish shaklining ajralmas komponenti deb bilgan. B. Uorf til va madaniyat munosabati xususida o'z fikrlarini quydagicha ifodalaydi: “til va madaniyat bir-birini taqazo qilsa va parallel rivojlansada, til tabiati uning erki va o'zgaruvchanligini chegaralovchi omil hisoblanadi va uni qat'iy belgilangan yo'l bo'ylab taraqqiy etishga yo'naltiradi”. Til va madaniyatning o'zaro munosabati haqidagi uchinchi yondashuvga mansub mulohazalar K. Levi-Stross, N.I. Jinkin, N.I. Tolstoy va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida aks etadi. Ularga ko'ra, til –biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til –biz uning yordamida madaniyatni o'zlashtirishimizdagi asosiy vosita vanihoyat til ruhimiz voqeligidir. “Til bir vaqtning o'zida ham madaniyatning mahsuli, ham eng muhim tarkibiy qismi va madaniyatning mavjudlik sharti. Til –madaniyat mavjudligining o'ziga xos tarzi, madaniy kodlar shakllanishining omili” deb ta'kidlaydi K. Levi-Stross. Bobokolonimiz A. Navoiy “tilni xanjarga, so'zni unga qadalgan injularga qiyos qilganlar. Shunday qilib, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari til birliklari semantikasi, strukturasida realiyani implitsit anglatishdan eksplitsit ko'rinishgacha bo'lgan turli shakllarda namoyon bo'ladigan voqelikdir”. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, til madaniyatning shakli ham, elementi ham emas, til madaniyatning o'zagidir va til madaniyatni o'zida aks ettirish shaklidir.

Lisoniymadaniyatshunoslik fanining asta-sekin shakllanib, taraqqiy etib borishi barobarida o'z tushunchalar apparati va tahlil metodlariga ega bo'lib boradi. Masalan, lingvokulterema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniy kontekst, submadaniyat,

lingvomadaniy paradigma, madaniyatning presedent nomlari, madaniyatning kalit nomlari, madaniy universaliya, madaniy kompetensiya, madaniy meros, madaniy an'ana, madaniy jarayon, madaniy tamoil, madaniy sem, madaniy fon, madaniy konsept, madaniy konnotasiya va shu kabi fanning kategorial apparatini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiya tilshunoslikning faol rivojlanayotgan yangi sohasidir. R.M. Frumkinaning so'zlariga ko'ra lingvokulturologiyaning tarqalishi til fanida madaniyatga o'rin yo'qligi aniqlangan davrda boshlangan. Har bir madaniyatda uning o'ziga xosligi belgisi bo'lgan bir qator tushunchalar mavjuddir. Masalan, Britaniya madaniyatidagi asosiy belgilar qonun, maxfiylik hamda boshqalardir. Bundan tashqari, har bir til ona tilida so'zlashuvchilarning ongida muhrlanib qolgan va ularning dunyoqarashini shakllantiradigan o'ziga xos tizim hisoblanadi. Shuning uchun lingvokulturologiya lingvistik tadqiqotlar uchun istiqbolli sohadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология как научная и учебная дисциплина // Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. - М., 2010. - С. 44.
2. Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. "Фразеология и паремиология", М.: Флинта: Наука, 2009. – С. 269
3. Розин В.М. Культурология. - М.: ИНФРА-М, ФОРУМ, 2002. – 282-283 с
4. Гумбольдт 1985: Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. М., 1985. – 60с.
5. Сепир Э. Труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. - 60с.
6. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. Учебное пособие. — Москва: Наследие, 1997. – 38с
7. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ.высш. учеб. заведений – М.: Академия, 2001. – 208 с
8. Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с
9. Whorf, Benjamin. 1956. Language, Thought and Reality. Cambridge UP: MIT Press. Edited by J. Carroll.
10. Фрумкина Р.М. Концепт, категория, прототип / Р.М.

Фрумкина. // Лингвистическая и экстралингвистическая семантика. – М., 1992. – С. 28-43.

INVESTIGATING THE TRANSFORMATION OF POLICODE TEXTS

Kamola ODILOVA

PhD researcher

The Uzbek State World Language University

Abstract. *This article explores the transformation of polycode texts and its implications in contemporary linguistic studies and society. The main objective is to analyze the interplay and shifting relationships between different codes and languages within polycode texts. A mixed-methods approach is utilized, involving qualitative and quantitative analyses of a diverse range of polycode texts collected from various sources. The findings reveal the prevalence of polycode texts in contemporary society and the influence of technological advancements on their usage. The analysis uncovers intricate linguistic and sociocultural dynamics, highlighting the role of polycode texts in social identity construction and cultural exchange. The implications of this research extend beyond linguistic studies, emphasizing the need for effective cross-cultural communication and inclusive interactions. The study concludes with a discussion on potential future developments and the importance of further research in understanding the complexities of polycode texts. This research contributes to the broader understanding of contemporary communication practices and the evolving linguistic landscape in the digital era.*

Key words: *Polycode texts, Transformation, Linguistic diversity, Language mixing, Code-switching, Sociolinguistics, Communication patterns, Digital era, Social identity, Cultural exchange, Multilingualism, Technological advancements, Sociocultural dynamics, Communication strategies, Cross-cultural understanding.*

I. Introduction. Polycode texts, encompassing the simultaneous usage of multiple languages, codes, and registers within a communication context, have become increasingly prevalent in contemporary society [1]. As globalization progresses, individuals seamlessly integrate different linguistic resources in their daily interactions, leading to the emergence of polycode texts as a unique and intriguing phenomenon [2]. The growth of technological advancements, such as social media platforms and instant messaging applications, has further facilitated the widespread use of polycode texts, transcending traditional language boundaries [3].